

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

T.S.Axmedova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida o'yin hamda o'yinchoqning ahamiyati	214
Z.O.Qosimoy	
Oliy tibbiy ta'lif talabalarining bioetik bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	218
M.A.Usmanov	
Makon va zamon xususiyatlarini anglashda inson idrok darajasining roli.....	222
A.A.Minavarov	
Tibbiyot oliygohi talabalarida tibbiy-ekologik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ usuli ..	228
G.K.Usmanova	
Tibbiyot ta'lif muassalari talabalarida gigienik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati	231
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarining texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi.....	234
C.Y.Анварбекова	
Исторические слова и основные аспекты их использования в лингвистике	238
Д.М.Азимова	
Дистанционное образование в обучения иностранному языку: эффективность и критерии	242
Д.Ф.Керимов	
Anketirovaniye kak metod issledovaniya ispolzovaniya IT tekhnologij v obrazovatel'nom i trenerovochnom processse	247
S.A.Mirzaqobilova	
Inklyuziv ta'lilda o'quvchilarni o'qitishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	255
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati	260
F.O'.Toshboltaev	
Bo'lajak pedagoglarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni	264
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari va ularning ijtimoiy-axloqiy qarashlarining shakllanishi va falsafiy tavsifi	267
S.A.Xayrullayev	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda konsolidatsiya omillari tavsifi	271
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarida analitik fikrlashni rivojlantirishning uslubiy jihatlari.....	275
G.I.Otaboyeva	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning nazariy jihatlari.....	279
N.T.Abdullajonova	
Germenevlik yondashuv va uning bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy jarayon qonuniyatlariga doir bilimlarini rivojlantirishdagi ahamiyati	282
Y.H.Teshayeva	
Ilimga yo'g'rilgan umr	286
Sh.B.Sattorova	
Yangi O'zbekistonda Mirzo Abdulqodir Bedil falsafasining barkamol avlodni shakllantirishdagi ma'naviy-axloqiy ahamiyati.....	290
M.F.O'rmonova	
Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida)	295
S.A.Rahmonberdiyeva	
Bino-inshootlar qurilishiga oid terminlarning xususiyatlari	298
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarining kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish metodikasini qo'llash	303



УО'К: 502

ILMGA YO'G'RILGAN UMR**ЖИЗНЬ, ПОСВЯЩЕННАЯ НАУКЕ****LIFE DEDICATED TO SCIENCE****Teshayeva Yulduz Hakim qizi** 

BuxMTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi stajor-o’qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayollarning jamiyatimizdagi o’rni, ilm-fan sohasida faoliyat ko’rsatayotgan xotin qizlar tadqiqotlari va BuxMTI “Oly matematika” kafedrasi professori Pulatova Manzura Isxakovnaning ilmiy hamda pedagogik ishlari tahlili haqida so’z boradi.

Аннотация

В статье говорится о роли женщины в нашем обществе, исследовании женщин и девушек, работающих в сфере науки, а также анализе научно-педагогической деятельности Пулатовой Манзуры Исхаковны, профессора кафедры высшей математики БухМТИ.

Abstract

This article talks about the role of women in our society, the research of women and girls working in the field of science, and the analysis of the scientific and pedagogical work of Pulatova Manzura Iskhakovna, professor of the "Higher Mathematics" department of BukhMTI.

Kalit so’zlar: Jamiyat, ilm-fan, tadqiqot, Oly matematika, fundamental bilimlar, eposlar, zakovat, pedagog, ta’lim jarayonlari, metodlar.

Ключевые слова: Общество, наука, исследования, высшая математика, фундаментальные знания, былины, интеллект, педагог, образовательные процессы, методы.

Key words: Society, science, research, higher mathematics, fundamental knowledge, epics, intelligence, pedagogue, educational processes, methods.

KIRISH

Yer yuzi aholisining 53 foizini ayollar tashkil qiladi. Shuning uchun ham gender muammolari bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan ayolga hurmat va ehtirom ko’rsatish, uni asrash va ulug’lash xalqimizning ko’p ming yillik tarixi davomida shakllangan mentalitetning muhim sifatlaridan biri bo’lib turmush tarzimizning o’ziga xos xususiyati sifatida saqlanib qolmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoga mashhur “Alpomish”, “Shirin va Shakar”, “Qirqqiz”, “Go’ro’g’li” kabi eposlari o’zbek xalq ertaklarida ayollarning mardligi va jasorati, ularning aql zakovatda erkaklardan qolishmasligi yorqin ifodalangan. Yurtini himoya qilish uchun yovga qarshi chiqqan va mardonavor kurashgan ayollar ham bizning tariximizda yo’q emas. Ular sirasiga To’maris, Qurbonjon Dodxoh va boshqalarni kiritish mumkin. Buyuk sohibqiron Amir Temur tuzuklarida ham “Ayollarga imkon qadar iliq muomalada bo’lishga harakat qildim”, deyilgan.

Mustaqillik tufayli O’zbekiston ayollarini jamiyatning tom ma’nodagi teng huquqli a’zosiga, jumladan siyosat subyektiga aylanib davlat va jamiyat boshqaruvida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’ldilar. Hozirgi kunda O’zbekistonda boshqaruv organlarida va yuqori davlat lavozimlarida ishlovchi ayollar 40 foizni tashkil qiladi. Ilm fan bilan shug’ullanuvchi ayollar soni ham ko’paydi. Olima ayollarimiz mamlakatimiz rivojiga o’zlarining munosib hissalarini qo’shib kelmoqdalar. Ular tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqotlar sanoat, qishloq xo’jaligi, ijtimoiy-ma’rifiy va madaniy sohalarning rivojiga katta turtki bo’lib, dunyo olimlari tomonidan tan olinmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbek ayollari qo'l urmagan soha yo'q. Yuqori intellekt va mantiqiy fikrlashni, aniqlikni talab qiladigan Oliy matematika sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqot qilish murakkab bir vazifa sanaladi. Buxoro muhandislik-texnologiya institutida hozirgi kungacha o'z ilmiy tadqiqotlari bilan shug'ullanib, yoshlarga Oliy matematikaning sirli tomonlarini o'rgatish bilan shug'ullanib kelayotgan Pulatova Manzura Isxakovna ham ana shunday jonkuyar olima ayollardan sanaladi.

Pulatova Manzura Isxakovna Buxoro shahrida o'qituvchilar oilasida tug'iladi. Buxoro shahridagi 12-sonli o'rta maktabni tamomlagach, Buxoro davlat pedagogika institutining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kiradi. Bir yildan so'ng o'qishini Toshkent davlat pedagogika institutining xuddi shu fakultetiga ko'chiradi va o'qishni shu yerda davom ettiradi. O'qishni tugatgandan so'ng Toshkent davlat politexnika institutining Buxoro filialiga, "Oliy matematika" kafedrasiga o'qituvchi bo'lib ish faoliyatini boshlaydi. 1979-yildan boshlab "Oliy matematika" kafedrasida katta o'qituvchi bo'lib ishlay boshlaydi.

U 1992-yilda Ukraina Fanlar akademiyasi qoshidagi Matematika Institutida akademik A.N.Bogolyubov rahbarligida "Теория рядов и ее практическое применение" mavzusida dissertatsiya yoqladi.

Pulatova M.I muntazam ravishda xalqaro, respublika va institut miqyosida o'tkazilgan konferensiyalarda qatnashib keladi. 1985-yildan 2021-yilgacha 86 ta ilmiy va metodik ishlar chop ettirgan. 2011-yilda "Yilning eng yaxshi darslik va o'quv-metodik qo'llanmasi" Respublika tanlovida "Практические занятия по высшей математике" darsligi uchun M.I.Pulatova 2-darajali diplom bilan taqdirlangan. Pulatova ko'r yillar davomida "Texnika yulduzlar" jurnalida va boshqa respublika nashrlarida maqolalari qayta-qayta chop etilgan iqtidorli talabalarga yetakchilik qildi.

M.I.Pulatova 1990-2017-yillarda matematika fanidan Respublika olimpiadalarida institut jamoasi yetakchisi bo'lgan. Uning rahbarligida olimpiadalarda ko'plab ishtirokchilar faxrli o'rnlarni egallashdi, xususan, 2008-yilda Bux MTI talabasi A.Qayumov 4-o'rinni (Samarqand shahri), 2010-yilda esa Samarqand shahrida matematika fanidan o'tkazilgan respublika olimpiadasida shogirdi Orifiy Faridun 3-o'rinni egalladi va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligining 3-darajali diplomi bilan taqdirlandi. 2011-yilda talaba M.Maxmujanov 4-o'rinni (Toshkent), 2016-yilda talaba A.Ahadov 4-o'rinni (Qarshi) egalladi va ularning barchasi Respublika olimpiadasi tashkiliy qo'mitasining diplomlari bilan taqdirlandi.

M.I.Pulatova ilmiy tadqiqot doirasida kafedrada ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari umumiyo rahbarlik qilib, kafedra professor-o'qituvchilariga zarur ilmiy maslahatlar berib kelmoqda.

U tomonidan 107 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shulardan 61 tasi xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida, 40 tasi Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarning tezislari. Pedagogik faoliyati davrida hozirgi vaqtgacha 10 ta darslik va o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya va 40 ga yaqin ma'ruzalar matni, amaliy mashg'ulotlar, tajriba mashg'ulotlarini hamda mustaqil ishlar bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi grifi asosida chop etilgan, 2 ta o'quv qo'llanmalari esa chiqarishga tayyor holatda.

M.I.Pulatova rahbarligida har yili institut talabalar turar joyi, 1-akademik litseyda matematika kechalari o'tkaziladi. Xususan, joriy yilning 2-may sanasida ustoz boshchiliklarida Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 1-son talabalar turar joyida Neft-gaz texnologiyasi fakultetining talabalarini ishtirokida Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Matematika kechas" o'tkazildi. Pulatova rahbarligida institut talabalarini har yili shahrimizning tarixiy maskanlari va muzeylariga tashrif buyurishadi, Samarqand shahriga ekskursiyaga borib, u yerda Sharqning atoqli olimlari Mirzo Ulug'bek va shaharning hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishadilar.

U 2002-yildan buyon Buxoro viloyat sil kasalxonasining bolalar bo'limi homysi bo'lib, bo'limga ko'rpa-to'shak, sovg'alar, kitoblar va o'quv qurollari bilan yordam berib kelmoqda (bu haqidagi maqolalar viloyat gazetalarida ham e'lon qilingan).

M.I.Pulatova O'zbekiston Respublikasining "Navro'z" va "Mustaqillik kuni" bayramlarida kam ta'minlangan va kasal fuqarolarga oziq-ovqat va zarur tovarlar tarqatishda ko'maklashmoqda. U bunday ehsonlarni tez tez qilib insoniylik jihatidan ham talabalarga o'rnak bo'lib kelmoqda.

M.I.Pulatova Buxoro muhandislik-texnologiyai instituti miyosida ham ko'zga ko'ringan ayol olimalardan hisoblanadi. U institut doirasida o'tkaziladigan ko'rik tanlovlarda ham doimiy ravishda qatnashib yuqori natijalarga ega bo'lib kelmoqda. 2015-yil sentabr oyida Buxoro muhandislik-texnologiya institutida o'tkazilgan "O'z kasbi bo'yicha eng yaxshi o'qituvchi" nominatsiyasida 2-o'rinni egallab, 2-darajali diplom bilan taqdirlandi.

M.I.Pulatova 2017-yilda "Yilning eng yaxshi tadqiqotchisi" nominatsiyasida 1-o'rinni egalladi va BuxMTI ning I darajali diplomi bilan taqdirlandi. Oliy va o'rtalik maxsus ta'limgazining 2018-yilda o'tqazilgan "Oliy ta'limgaz muassasalarining eng yaxshi pedagogi" tanlovi Respublika bosqichining "Mutaxassisligi bo'yicha eng yaxshi pedagog" nominatsiyasi g'olib bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalik maxsus ta'limgazining faxriy diplomi bilan taqdirlangan.

Bundan tashqari u ustoz-shogird an'analalarini ham juda yaxshi olib boradi. O'z shogirdlariga kasbining sir asrorlarini o'rgatib kelyapti. Kafedrada ham yosh mutaxassislarining pedagogik mahoratini oshirish va oliy matematika fanini o'qitish sifatini oshirishda yordam beradi, yuzdan ortiq shogirdlarga ega. Ular orasida ilmiy tadqiqot qilib doktorlik va dotsentlik darajasiga yetganlari ham talaygina.

M.I.Pulatova Respublikadagi boshqa oliy ta'limgaz muassasalarida ham talabalarga o'z ma'ruzalari bilan juda tanish. Tez-tez boshqa viloyatlarda ham oliy matematikaning turli yo'nalishlari va masalalari bo'yicha o'zining qimmatli bilimlarini talabalarga bo'lishadi. Xususan M.I.Pulatova 2017-yil 1-maydan 3-maygacha Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tgan respublika ilmiy anjumanida "Dinamik tizimlarning dolzarb muammolari va ularning qo'llanilishi" mavzusida ma'ruza qildi.

M.I.Pulatova fakultetda ham, institutda ham o'tkaziladigan ko'plab tadbirda faol ishtirok etib, institut talabalari va professor-o'qituvchilar orasida hurmat-e'tiborga sazovor. Kafedrada "Al-Xorazmiy izdoshlari" to'garak tashkil qilib, unda uning ishtirokchilar Respublika olimpiiadalariga qatnashib, yuqori o'rnlarni egallab kelmoqdalar. Hattoki 2017-yil 27-aprelda u kimyo-texnologiya va muhandislik-texnika fakultetlari talabalari jamoalari o'tasida matematika fani bo'yicha QVZ tashkilotchisi bo'ldi. Bu tadbir juda ham qiziqarli va hamma uchun esda qolarli bo'ldi. Ustozning ta'limgaz jarayonlariga bunday noan'anaviy tarzda yondashuvi har bir yosh o'qituvchilar uchun o'rnak bo'la oladi.

M.I.Pulatova institutda bajarilayotgan "Kondensirlangan va nano-o'lchamli tizimlardagi fluktuasiaviy va parametrik hodisalar" mavzusidagi OT-F-2-64 raqamli davlat grantida katta ilmiy xodim sifatida ilmiy tadqiqot ishlarni olib bormoqda (Buyruq №38-OSh va buyruq №09-U asosida).

Ayni kunda M.I.Pulatova 2 nafar tayanch doktorantlarga rahbarlik qilib, ta'limgaz tizimini takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish va yuksak madaniyatni shakllantirishda o'z hissasini qo'shmaqda.

M.I.Pulatova "Oliy matematika" kafedrasi professori sifatida kafedrada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, o'quv-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etadi va tajribali pedagog sifatida barcha ma'ruza va amaliy darslarni yuqori saviyada, pedagogik texnologiyalar asosida olib boradi.

M.I.Pulatova Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida ilmiy ma'ruzalari bilan ishtirok etib kelyapti. Jumladan, uning rahbarligida bir qator iqtidorli talabalar va yosh olimlarning ilmiy-amaliy anjumanida faol ishtiroki va fanlarni o'zlashtirishdagi yutuqlari uchun institut rahbariyati tomonidan bir qator faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

XULOSA

M.I.Pulatova ilm-fan sohasiga qo'shgan hissasi, insoniylik hamda Vatan oldidagi sharafli burchini fidokorona bajarayotgani uchun 2021-yilning 24-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan ta'sis etilgan "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30-yilligi" esdalik nishoni bilan taqdirlandi. Bu ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi uning kuchiga-kuch, g'ayratiga-g'ayrat qo'shanini olimaning o'zi ham alohida ta'kidladi.

Manzura Isxakovna nafaqat zukko olima, balki hamkasblariga, yor-u birodarlariga, do'stlari va shogirdlariga shu qadar mehribon va e'tiborli, ularning muvaffaqiyatidan o'zi zafar quchgandek quvonadi, vaziyatiga esa hamisha hamdard bo'ladi. Uning sermazmun va samarali hayot yo'li yoshlarga ibrat namunasidir.

ILMIY AXBOROT

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dissertantning Pulatova M.I bilan 2024-yil 15-iyundagi suhbati asosida.
2. www.ziyo.uz
3. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Т. Шарқ, 2000, 336-б.
4. Юсупов Э.Ю. Переход к социализму минуя капитализм. М., 1987, с.170.
5. Аминова Р.Х. История совхозов Узбекистана 1917-1960. Т., 1993,с. 22,33.
6. Бухоро вилоят давлат архиви, 9-фонд, 2-рўйхат, 21-ийғма жилд, 13-15 вараг; 151-фонд, 2-рўйхат, 141,214-ийғма жилд, 19, 24 вараг.
7. Ўзбекистон тарихи (1917-1991), Т., ФАН, 2019, 517-б.